YOSHLARNI TARBIYASIDA IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT MAZMUNI TUZULMASI VA YOSHLAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOIY FUNKSIYALARI

MUXAMMADIYEVA SEVARA BOHODIROVNA
Shahrisabz davlat pedagogika inistuti pedagogika kafedirasi o'qtuvchisi
ISMOILOVAMUXLISAABDUJABBORQIZI
Shahrisabz davlat pedagogika inistuti pedagogika fakulteti talabasi
e.mail.Ismoilovamuxlisa87@gmal.com.
Tel.+998873224454
QODIROVA UMIDA ADUJAMIL QIZI
Shahrisabz davlat pedagogika inistuti pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlar tarbiyasida ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni, tuzilmasi va funksiyalari kompleks tarzda tahlil etilgan. Hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiylashuvi, ma'naviy-axloqiy rivoji hamda ijtimoiy muhitga moslashuvi dolzarb muammolardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi yoshlar tarbiyasida ijtimoiy-pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini ochib berish, uning strukturaviy komponentlari va funksional yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Maqolada tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanilgan. Natijada ijtimoiy-pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirish yoshlarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur faoliyatning tarbiyaviy, diagnostik, prognostik va himoyaviy funksiyalari yoshlar bilan ishlashda ustuvor ahamiyat kasb etishi yoritilgan.

Kalit so'z.: ijtimoiy, pedagogika, ijtimoiylashuv, ob'ekt, predmet, falsafa, etika,

sotsiologiya, etnografiya, etnopsixologiya, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiylashuv kategoriya, ijtimoiy ta’lim, ijtimoiy pedagogik faoliyat, metod.

Основныепонятия:социальный,педагогика,социализация,объект,субъект, философия,этика,социология,этнография,этнопсихология,социальноевоспитание ,категориясоциализации,социальноевоспитание,социально-педагогическаядеятельность,метод.

Kirish. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi tutgan o‘rni, mohiyati haqida fikr yuritishdan ilgari «Ijtimoiy pedagogika» atamasiga e’tiborni qaratish zarur. Zero unda mustaqil “Ijtimoiy”, “Pedagogika” yo‘nalishdan iborat bo‘lgan mustaqil fan mujassamlashgandir. Bir necha fanlarning bunday birlashuvi tasodifiy xol bo‘lmasdan balki, u ixtisoslashuv jarayonlari bilan bog‘liqdir. Darhaqiqat fan olamida keyingi yillarda ixtisoslashuv jarayoni bir muncha rivojlandi. Buni birgina pedagogika fani misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, «Maktabgacha pedagogika», «Maktab pedagogikasi», «Maxsus pedagogika», «Kasb-xunar pedagogikasi», «Oila pedagogikasi», kabilar. Fanlarni bu taxlitdagi o’zaro birlashuvining asosida ma’lum bir maqsadga qaratilganlik yotadi. Bu xolni «Ijtimoiy pedagogika» dan ham aniq ko‘rish mumkin. Darxaqiqat ijtimoiy pedagogika ham pedagogika kabi ta’lim tarbiya jarayoni va xodisalarini o‘rganadi. Ammo shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, u ularni muayyan o‘ziga xos yo‘nalishda o‘rganadi. Chunki, mazkur fanning o‘ziga xos bo‘lgan tomoni “Ijtimoiy” iborasida mujassamlashtirilganligidir. Ijtimoiy pedagog faoliyati tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat: subyekt (faoliyatni amalga oshiruvchi tomon), obyekt (faoliyat yo`naltirilgan tomon), maqsad (faoliyat orqali nimaga intilinadi), vazifa (faoliyat orqali nimalar amalga oshiriladi), vositalar (faoliyat qaysi usul yoki texnika yordamida amalga oshiriladi).

Ijtimoiy pedagog faoliyatining obyekti jamiyatga moslashish jarayonidagi yordamga maqsad bolalar va yoshlardir. Bu toifaga intellektual, ruxiy, ijtimoiy nuqsoni bor bolalar, shuningdek, jismoniy, ruxiy yoki aqliy shakllanishi buzilgan

bolalarning katta qismi (ko‘zi ojiz, kar—soqov, aqliy ojiz va bolalar falajligiga chalinganlar) kiritiladi. Agar bolaning jamiyatdagi shakllanishi normal kechsa, unda ijtimoiy pedagogning yordami zarur bo‘lmaydi. Bordiyu, ota-onalar va maktab uning shakllanishi, tarbiyalanishi va ta’lim olishini ta’minlay olmasa, u holda ijtimoiy pedagog xizmati kerak bo‘ladi. Ijtimoiy pedagogikaning o’ziga xosharakteri uning boshqa fanlar bilan munosabatida bevosita namoyon bo‘ladi.

Falsafa va ijtimoiy pedagogika. Falsafa inson borlig‘i masalalarini o‘rtaga qo‘yadi va ularga javob topishga harakat qilib, dunyoqarashning umumlashgan tizimini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagogikaning “ijtimoiy tarbiya falsafasi” bo‘limi inson va uning tarbiyasiga muayan qarashlardan kelib chiqadi va bu qarashlarda har doim u yoki bu falsafiy asoslarga suyanadi.

Etika va ijtimoiy pedagogika. Etika axloqiy tasavvur va qarashlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek, u tartibga solayotgan axloqiy ong shakllarini va ularning axloqiy faoliyatini tahlil qiladi. Ijtimoiy pedagogika etika shakllantirgan tamoyillardan foydalanadi hamda tarbiya usullari va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Sotsiologiya va ijtimoiy pedagogika. Sotsiologiya-jamiyat, ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tarbiya uslubiyati rivoji, faoliyat yuritishi, shakllanish qonuniyatlari haqidagi fan. Ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi ijtimoiylashuv muammolarini o‘rganish jarayonida ijtimoiy bitim sohalarining bir qator ma’lumotlari (yosh, shahar va qishloq, dam olish, ommaviy aloqalar, yoshlar, axloq, ta’lim, jinoyatchilik, din, oila sotsiologiyasi)dan foydalanadi. . Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir qator fazifalarga ega bo‘lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin: Nazariy vazifa: ijtimoiy pedagogik bilimlarni to‘plab zamonaviy jamiyatda o‘rganayotgan jarayon va xodisalarning to‘liq tasvirini tuzishga intilishda namoyon bo‘ladi. Amaliy vazifalarga: - ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yo‘nalishlardagi ta’sirini samarali takomillashtirish ishlarini aniqlash bilan

bog‘liq bo‘lgan ishlar kiradi. Bunday ishlar qatoriga bolalar (yoshlarda) ongida, xatti-harakatida ijobiy fazilatlarning shakllanishiga yaqindan yordam beruvchi, yo‘l – yo‘riq, shakl, vositalarini aniqlash va ularni tadbiq etish, har qanday vaziyatdan mustaqil chiqib ketishning samarali yo‘llarini aniqlash, atrofdagi kishilar bilan muomala qilishni o‘rganish, hayot mazmuni va maqsadini aniklashga doir tavsiyalar berish; ularda jamiyatdagi xuquq va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish, hamda mustaqillik, o‘ziga ishonch xissini shakllantirish. Insonparvarlik vazifasi - shaxsning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtirish uchun maqsadlarni ishlab chiqishda o‘z ifodasini topadi. Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning insoniyligi bola va pedagog o‘rtasidagi munosabatlarni qattiqqo‘llik bilan emas, o‘zaro tushunish orqali hal qilishga asoslanadi.

Asosiy qisim.“Ijtimoiy” (lotincha – socialis – umumiy) tushunchasining asosini shaxslar, shaxslararo munosabatlarning turli shakllari bilan bog‘liq jarayonlar tashkil etadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agarda pedagogika o‘sib kelayotgan yosh avlodlarning ta’lim-tarbiyasi haqidagi fan bo‘lsa, ijtimoiy pedagogika ta’lim-tarbiya jarayonlarida bolaning jamiyatdagi hayotga qo‘shilishiga bog‘liq qonuniyat va xodisalarni o‘rganadi. Bu o‘rinda shuni ham aytib o‘tish joizki, bolaning jamiyatga “kirish” jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qo‘lga kiritishi (bilim, qadriyat, yurish-turish qoidalari) bilan bog‘liqdir. Buni ijtimoiylashuv deyiladi. Agarda biz ijtimoiy pedagogika mohiyatini uning ob’ekt va predmetini qiyoslash orqali aniqlamoqchi bo‘lsak quyidagi holat kelib chiqadi. Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob’ekti- bu bola, biroq o‘rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o‘rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblansa, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlaridir. Shu sababli ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi, hamda insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, nima uchun bir guruhga

birlashishlarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Shuningdek u bu muammolarni ijtimoiy pedagogika vazifalariga mos ravishda o‘rganadi. Pedagogik faoliyat-ta’lim va tarbiya orqali ijtimoiy-madaniy tajribani berishga yo‘naltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari, dasturlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga kirishi) yordam ko‘rsatishga qaratilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan turli xil ta’lim muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari, ijtimoiy pedagoglar bilan amalga oshiriladi. Ijtimoiy pedagogik faoliyat har doim, ya’ni aniq bir bolaga va ijtimoiylashuv, jamiyatga integratsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarini hal etishga yo`naltirilgan bo‘ladi. Kasbiy faoliyat tuzilmasi-har qanday faoliyat o‘z tuzilmasiga egadir. Ular faoliyat elementlarining o‘zaro bog‘liqligini va o‘zaro shartlarini aliqlaydi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining maqsadi yoshlarni bolaning ruxiy yengilligi va xavfsizligi uchun sharoit yaratish, uning oilasi, maktabi va atrofidagi unga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan ogohlantiruvchi va ularni yengib o‘tuvchi ijtimoiy, xuquqiy, ruxiy, tibbiy va pedagogik muammolarni kompleks ravishda hal etish maqsadida turli mutaxassislar (ruxiyatshunoslar, tibbiy xodimlar, ijtimoiy xodimlar va yuristlar) hamda ma’muriy organlar va idoralarning (ta’lim, sog‘liqni saklash, ijtimoiy himoya sohasidagi) mazkur masalaga yo‘naltirilgan say’i-harakatlarini muvofiqlashtirib turishda vositachi bo‘la olishi kerak. Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi muhim yo`nalishbu BMT konvensiyasida e’lon qilingan bolaning yashashga, sog‘lom shakllanishga, ta’lim olishga, o‘z qarashlarini erkin ifoda etishga, kamsitishning har qanday turidan himoyalashga qaratilgan huquqlarini himoya qilishdir. Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi yana bir yo‘nalish-bu bolani shakllanishiga ko‘maklashuvchi ijtimoiy loyihalar va dasturlar, xususiy tashabbuslarni ishlab chiqishda ishtirok etishdir.Shunday qilib, ijtimoiy pedagog faoliyatiga tashhis qo`yish, bashoratchilik, vositachilik, to‘g‘rilash va qayta tiklash, himoyalash va ogohlantirish va profilaktik,

evristika (ijodiy fikrlash) vazifalarni biriktirish mumkin.Bular safiga maqsadga erishishda zarur bo‘ladigan barcha harakatlar, predmetlar, qurollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyat subyekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy omilkorlik. Ijtimoiy pedagogning shaxsiy tavsifnomasi ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, avvalo mazkur faoliyat subyektini o‘z sohasini mukammal biluvchi mutaxassisni belgilab olishimiz zarur bo‘ladi. U bola hayotidagi ijtimoiy va boshqa qiyinchiliklarni chuqur farqlay biladi va unga yordamga kela oladi. U umumnazariy va maxsus bilimlarga malaka va ko‘nikmalarga, ma’lum darajadagi qobiliyatga ega bo‘ladi. Kundalik xayotda biz kasb inson ongida, uning xattiharakatlarida va dunyoqarashida o‘ziga xos iz qoldirishiga guvoh bo‘lamiz. Psixologiyada bu narsa "kasbiy mentallik" deb ataladi. Mentallik-bu insonning olamga munosabatini va uning kundalik xatti-harakatlarini aks ettiruvchi ma’lum ijtimoiy—ruhiy qarashlar va qadriyatlar majmuidir. Mentallik o‘zida individning ijtimoiy va madaniy tajribasini mujassamlashtirgan bo‘lib, insonning qaysi ijtimoiy qatlamga, yoshga, jinsga, millatga va kasbga mansubligi bilan aniqlanadi. Psixologik tadqiqotlarda kasbiy mentallik ma’lum bir kasb egalariga xos bo‘lgan xususiyat sifatida e’tirof qilinadi. Hozirgi pedagogning muhim vazifalaridan biri milliy istiqlol g‘oyasini bolalar va o‘quvchilar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chiqib, uni amalga oshirishdan iboratdir.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimov shunday degan edi: ‘‘Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqlol g‘oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilar, ilm–fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma’naviy–ma’rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish, uning asosiy tamoyillarini odamlar qalbiga va ongiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish zarur. Mana shuning uchun ham yaratiladigan qo‘llanmalar mazmunida milliy istiqlol g‘oyasi asosiy o‘rinni olishi lozim.

Ijtimoiy pedagog" sohasiga tegishli barcha mutaxassilarning ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘ladi. Bir qator tadqiqotchilar ularning shaxsiy tavsifnomasi sifatida individual ruxiy xususiyatlar va maxsus qobiliyatlarni ko‘rsatmoqda. Kuzatuvchanlik, vaziyatga qarab tez yo‘lga tusha bilish, fahm— farosat bilan seza olish, o‘zini boshqa odam o‘rniga qo‘ya olish va uning hissiyotlarini tushuna bilish, o‘zini boshqara olish va refleksiya (fikr yuritib uni tahlil qilish) maxsus qobiliyatlar jumlasidandir. Shuningdek ijtimoiy pedagog dilkashlik, odamlar bilan ishlay olish, qiziqqonlik, o‘z fikrini o‘tkaza olish, baxsli vaziyatlarda yo‘l topa bilish, tirishqoqlik kabi ijtimoiy sohaning barcha xodimlariga xos xususiyatlarga ham ega bo‘lmog`i darkor. Xorijiy tadqiqotchilar ham pedagogning individual-ruxiy xususiyatlari to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildiradi. Masalan, Buyuk Britaniyalik olimlar bunday xususiyatlar qatoriga yuqori darajadagi aqliy salohiyatga egalik, tartiblilik va o‘z-o‘zini boshqara bilish, jismonan kuchlilik, odamlarga qiyin vaziyatlarda yordam bera olish, chidamlilik, sezgirlik kabilarni kiritadi.AQShning mashhur psixologlaridan sanalgan J.Xoland o‘zining "o‘ziga yo`naltirilgan qidiruv" metodikasida ijtimoiy soha kasbi egasiga xos xususiyatni ko‘rsatgan. Ular realistlik (haqqoniylik), tadqiqotchilik, artistlik, ijtimoiy, tadbirkorlik, konvensional xususiyatlardir. U ijtimoiy pedagogga xos insonparvarlik, ideallik, mas’uliyatlilik, axloqlilik, xushmuomalalik, iliqlik, odoblilik, o‘zgalarni do‘st tuta olish kabi xususiyatlarni ham ko‘rsatadi. Ijtimoiy pedagog kasbi insonlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimida faoliyat yurituvchi ko‘pqirrali soha bo‘lib, pedagogning qaysi ishda ishlashidan qat’iy nazar odamlar bilan va avvalo bolalar bilan ishlashga yo`naltirilgan. Muloqot jarayonida pedagog ko‘pincha ruxiy og‘irlikni va charchoqni o‘zida sinashiga to‘g‘ri keladi. Shu bois uning asab tizimi ham mustahkam bo‘lishi darkor. Bu narsa unga ijtimoiy-pedagogik, ruxiy-terapevtik jarayonlarda emotsional qiyinchiliklar bilan to‘qnashuvda yordam beradi. Ijtimoiy pedagogga xos yana bir xarakter bu "Men -obrazidir". Mazkur xarakter pedagogga boshqa odamlar bilan erkin muloqot qilish va ularni oson qabul qilish imkonini beradi. Yuqorida

keltirilgan xususiyatlar bilan tanishar ekanmiz, har qanday odam ham ijtimoiy-pedagogik faoliyatni olib borish qobiliyatiga ega bo‘lavermasligiga ishonch hosil qilamiz. Har bir pedagogning kasbiy omilkorligi, ya’ni uning o‘z faoliyatini olib borishga amaliy va nazariy tomondan tayyorligi me’yoriy-huquqiy hujjatlar yordamida tartibga olinadi. Mazkur hujjatlar o‘z ichiga mutaxassis pedagogning kasbiy majburiyatlarini, mehnat tavsifnomasini, bilim va malakasini oladi. Bugungi kunga kelganda ijtimoiy pedagogika mustaqil fan sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozirda uning nazariy va amaliy faoliyati sohasiga maktab va maktabdan tashqari muassasalardagi tarbiya va qayta tarbiya, bolalar uylari, qariyalar uylarida yashovchilarga g‘amxo‘rlik, huquqbuzarlar bilan ishlash, kabilar kiradi.

Xulosa.. Xususan ijtimoiy tarbiya va uning vazifalari ta’rifi beriladi inson qiyofasini muayyan tushunish asosida rivojlanish, ijtimoiylashuv va tarbiya nisbatiga umumiy yondashuvlar ishlab chiqiladi; ijtimoiy tarbiyaning qadriyat va tamoyillari ishlab asoslaniladi va boshqalar. Ijtimoiy tarbiya satsiologiyasi - ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o‘rganadi. Olingan bilimlar ularning tarbiya solohiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta’sir etish mumkin bo‘lgan ijobiy ta’sirlarni kuchaytirish va salbiy ta’sirni kamaytirishning usullari va yo‘llarini izlab topish imkonini beradi. Umuman olganda ijtimoiy tarbiya satsiologiyasi tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar jamiyat tarbiyaviy kuchlarini birlashtirish yo‘llarini qidirishga asos bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy tarbiya nazariyasi - ijtimoiy tarbiyaning faoliyat yuritishini tavsiflaydi, tushuntiradi va bashorat qiladi. Ijtimoiy tarbiya darajasidan kelib chiqib, ijtimoiy tarbiya ijtimoiyogiyasi ma’lumotlarini inobatga olib ijtimoiy tarbiya individual, guruh, ijtimoiy sub’ektlari nima ekanligini va ular o‘zaro qanday munosabatda bo‘lishlarini o‘rganadi. Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi - guruh va insonlarning ijtimoiy psixologik tavsiflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlari asosida ijtimoiy tarbiya sub’ektlarining o‘zaro munosabati samaradorligining psixologik sharoitlarini aniqlaydi.

Ijtimoiy tarbiya uslubiyati - ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil qilishning yangi usullarini ishlab chiqadi. Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti bir tomondan jamiyatning inson mablag‘iga ehtiyojini, boshqa tomondan ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo‘lgan jamiyatning iqtisodiy resurslarini tadqiq etadi. Bundan tashqari bu bo‘limda ijtimoiy tarbiya boshqaruvi ham ko‘rib chiqiladi. Ma’lumki, har bir fanni mazkur fanning o‘rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi.

Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida aks etadi. Tushunchavoqey olamni bilish jarayonida yuzaga keladi. Voqeylik o‘zgaruvchan bo‘lganligi tufayli tushunchalar ham dinamik tarzda o‘zgarish va rivojlanish harakteriga ega. Boshqacha qilib aytganda tushunchalar tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi. Har qanday fanning rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan kategoriyalariga birlashishadi. Fan kategoriyalari shu fanda qo‘llaniladigan yirik nazariy va amaliy tushunchalardir. Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq atvorning me’yor va qoidalari haqidagi bilimlar, tajribalarni o‘zlashtirib boradi. Bolalar ijtimoiylashuvining o‘ziga xos xususiyati shuki, ular jamiyat ilgari surayotgan yurishturish me’yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. Faqat ular bu darajani hayot davomida egallaydilar. Shuning uchun bolalar ijtimoiylashuviga ota-onalar, qarindoshlar, bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar (psixolog, shifokor, pedagoglar – “agent”lar) bu masalaga alohida e’tibor bermoqlari zarur. Chunki, bolalar hayotda zarur bo‘lgan ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o‘zlashtirishlari va ularni hayotda qo‘llashga intilishlari aynan ularga bog‘liqdir. Buni ijtimoiy pedagogika bilan bog‘liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta’lim muassasida ta’lim olish jarayonida bolalar avvalo akademik bilimlarni o‘zlashtiradi. Biroq shu bilan bir vaqtda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko‘nikma va malakalarni ham qo‘lga kiritadi. Bular esa bolalarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega. Bolaning ijtimoiylashuviga

yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish va unda ijtimoiy malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni “ijtimoiy ta’lim” deyiladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy ob’ekti sifatida uning rivojlanish tarixi mobaynida o‘rganib kelingan. Chunki, bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni ifodalaydi. Boshqa tomondan tarbiya-ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug‘aviy ma’nosiga qaraganda bir muncha kengdir. Darhaqiqat, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo‘naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruhiy sub’ektlarning uchta o‘zaro bog‘liq va shu paytning o‘zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo‘lgan jarayonlar (bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar)ni qamrab oladi. Ularning ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularga individual yordam ko‘rsatishning o‘zaro munosabati jarayonida yaratiladi. Guruh (jamoa)larda ijtimoiy tajribani tashkil qilish esa ularning hayotiy faoliyatini yo‘naltirish orqali amalga oshiriladi. Bunda guruh a’zolarining o‘zaro munosabatlarini tashkil qilish, guruhdagi faoliyatni rag‘batlantirish va norasmiy mikroguruhlarga ta’sir etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tajriba keng ma’noda turli ko‘nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurishturish me’yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, ko‘nikish, shuningdek o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini aniqlab olish birligidir. Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda ko‘maklashish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish, uning jamiyatdagi mavqei, o‘rnini yuksaltirishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1.1-Perezdentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch “kitobidan.

2. Sh.Xasanova “Bolalarni maktabga tayyorlash” ma`ruza matni.2018 y.

3. M.Hakimova, M.Ma`rufova “Bolalarni ijtimoiy moslashuvi” 2021 y.

4. Chorieva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).

5. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.